



Maxmut MAMATOV,

Dotsent, DSc, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston
E-mail: mamatovmahmud51@gmail.com, <https://ORCID.org/0009-0000-8925-8486>

TIQXMI professori, f.f.d Q.Nazarov taqrizi asosida

UCHINCHI RENESSANS - MA'NAVYI TARAQQIYOT POYDEVORI

Annotatsiya

Uchinchi Renessansning ma'naviy taraqqiyot poydevorini shakllantirish ijtimoiy, iqtisodiy sohalar bilan birga ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda ro'y beradigan voqea-hodisalar, ular bilan bog'liq turli jarayonlar ta'lim amaliyotida muhim. Bu maqolada inson mohiyati, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etilishi haqida ma'lumotlar, ma'naviyat- inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha ekanligi, kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, tasavvurlarini o'z ichiga olishi yoritilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma'ruza va asarlari orqali Uchinchi Renessans - ma'naviy taraqqiyot poydevorini yaratish va ma'naviy – axloqiy tarbiyani shakllantirish usullari va tarbiyani rivojlanishiga oid fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, taraqqiyot, Uchinchi Renessans, strategiya, globallashuv, axborot, makon, omil, shakllantirish, ijtimoiy, iqtisodiy, rivojlanish, axloq, qadriyat, tarbiya, zamonaviy, ta'lim, bosqich.

ТРЕТИЙ РЕНЕССАНС — ОСНОВА ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

Формирование духовного фундамента Третьего Ренессанса представляет собой важный процесс, охватывающий не только социально-экономические сферы, но и духовно-просветительские направления общественной жизни. В образовательной практике особое значение приобретают события и явления, происходящие в духовной среде, а также связанные с ними процессы. В данной статье раскрываются вопросы сущности человека, его ценности как высшего творения, а также содержание понятия духовности как отражения внутреннего мира, интеллектуального и нравственного состояния личности. Духовность рассматривается как совокупность философских, правовых, научных, художественных и нравственных представлений человека. На основе выступлений и трудов Президента Республики Узбекистан Shavkat Mirziyoyev анализируются идеи создания духовного фундамента Третьего Ренессанса, пути формирования духовно-нравственного воспитания, а также методы совершенствования воспитательного процесса в условиях современного общества.

Ключевые слова: духовность, развитие, Третий Ренессанс, стратегия, глобализация, информация, пространство, фактор, формирование, социальный, экономический, развитие, мораль, ценность, воспитание, современный, образование, этап.

THIRD RENAISSANCE — THE FOUNDATION OF SPIRITUAL DEVELOPMENT

Annotation

The formation of the spiritual foundation of the Third Renaissance is regarded as an important process that encompasses not only socio-economic development, but also transformations occurring in the spiritual and educational spheres of society.

Events, phenomena, and processes related to moral and cultural progress play a significant role in the practice of modern education. This article examines the essence of the human being and the embodiment of human value as a unique creation. It also explains spirituality as a concept reflecting the inner world, intellectual capacity, and moral consciousness of an individual. Spirituality is interpreted as a complex system that includes philosophical, legal, scientific, artistic, and ethical views of society and individuals. Based on the speeches and scholarly works of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, the article analyzes the ideas of establishing the spiritual foundation of the Third Renaissance, the development of moral and ethical education, and the improvement of educational methods aimed at strengthening the spiritual growth of society.

Keywords: spirituality, development, Third Renaissance, strategy, globalization, information, space, factor, formation, social, economic, development, morality, value, upbringing, modern, education, stage.

Kirish. Bugungi globallashuv va shiddat bilan o'zgarayotgan axborot makonida har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda ma'naviy omillarga alohida e'tibor qaratmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lash, milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarni ma'nan yetuk va intellektual salohiyatli etib tarbiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Ana shu jarayonlarda "Uchinchi Renessans" g'oyasi mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishi sifatida maydonga keldi.

Uchinchi Renessansning poydevori, avvalo, yuksak ma'naviyat, ilm-fan, ma'rifat va milliy o'zlikni anglashga tayanadi. Chunki ma'naviy taraqqiyot jamiyatning ichki

kuchini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi. Ma'naviyat yuksak bo'lgan jamiyatdagina innovatsiya, taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik qaror topadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda dunyo miqyosida mafkuraviy tahdidlar, ommaviy madaniyat ta'siri va axborot xurujlari kuchayib bormoqda. Bu esa yoshlarning ma'naviy ongi, milliy qadriyatlarga munosabati va ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida ma'naviy taraqqiyotni kuchaytirish, ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va ma'rifiy ruhda tarbiyalash muhim. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy-siyosiy

barqarorligini ta'minlovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotining bugungi bosqichida mazkur masalaning dolzarbligiga alohida e'tibor qaratib, uning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini shunday ta'kidlagan edi: "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi"[1] deb aytganlari bejiz emas albatta. Shunga ko'ra:

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shundan dalolat beradiki, Uchinchi Renessans g'oyasining mazmun-mohiyati va Renessans tushunchasi tarixda ilm-fan, madaniyat, san'at va ma'rifatning yuksalish davrini anglatadi.

Markaziy Osiyo hududida IX–XII asrlarda Birinchi Renessans, XIV–XV asrlarda esa Ikkinchi Renessans shakllangan. Bu davrlarda Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalar jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan.

Bugungi kunda Uchinchi Renessans g'oyasi Yangi O'zbekistonda ilm-fan, innovatsiya, ma'naviyat va ta'limni rivojlantirish orqali yangi taraqqiyot bosqichini yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda inson kapitali va ma'naviy kamolot asosiy o'rin tutadi.

Davlatimiz rahbari "Shavkat Mirziyoyevning 2021 - yilda chop etilgan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari [2], 2017 - yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [3] va uning asosida qabul qilingan Harakatlar strategiyasi hamda uning mantiqiy davomi bo'lgan "Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"[4],

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda u bilan tasdiqlangan "Taraqqiyot strategiyasi"[5] jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida islohotlar va yangilanishlar jarayonini yanada jadallastirdi.

Prezidentimizning 2017 - yil 24 - maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[6] gi, 2017 - yil 30 - iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"[7] gi , 2017 - yil 14 - avgustdagi "Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"[8] gi , 2021 - yil 26 - martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan yangilash to'g'risida"[9] gi Qarorlari va Farmonlari bu borada muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy muhitni mustahkamlash Uchinchi Renessans po'ydevorini barpo etishning muhim sharti sifatida baholanmoqda. Ma'naviyat masalalarini tadqiq etgan olimlardan Q. Nazarov, Erkin Yusupov, Quronov Muhammadjon Rahmonovich va Baxodir To'ychiyev ishlarida ma'naviy taraqqiyot inson ongi, axloqiy tarbiya va ijtimoiy faollik bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi.

Ularning qarashlariga ko'ra, jamiyatda yuksak ma'naviyat qaror topmas ekan, innovatsion taraqqiyot va sivilizatsion yuksalishga erishish qiyin bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunda iboratki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma'ruzalarida Uchinchi Renessans g'oyasi

mamlakatning intellektual va ma'naviy yuksalish metodologiyasi ekanligi aniq bayon qilingan. Muallif ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asrash hamda ilm-fanni rivojlantirishni yangi taraqqiyot bosqichining asosiy mezoni sifatida ko'rsatadi. Ma'naviy taraqqiyot jamiyatning ichki madaniy, axloqiy va intellektual salohiyatini namoyon etadi. Ma'naviyat insonning fikrlashi, hayotga munosabati, milliy o'zligini anglashi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantiradi. Jamiyatda ma'naviy muhit barqaror bo'lsa, ijtimoiy munosabatlarda adolat, bag'rikenglik va hamjihatlik kuchayadi. Bu esa davlat taraqqiyotining mustahkam asosini yaratadi. Shu bois Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy sohada keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalari, Uchinchi Renessansning asosiy harakatlantiruvchi kuchi – bilimlil, tashabbuskor va ma'nann yetuk yoshlardir. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashga yo'naltirish muhim.

Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan salbiy axborotlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish bugungi kunning muhim talabidir. Bu borada oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi zarur. Milliy qadriyatlar va ma'rifat uyg'unligi, xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy tayanchi hisoblanadi. Ajdodlar merosini o'rganish, tarixiy obidalarini asrash, milliy an'ana va urf-odatlarini qadrlash Uchinchi Renessans g'oyasining muhim yo'nalishlaridir.

Zamonaviy ilm-fan yutuqlarini milliy ma'naviyat bilan uyg'unlashtirish jamiyat taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu esa milliy taraqqiyot modeli shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Shuni ko'rsatadiki, ma'naviy taraqqiyot jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, milliy birlik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlaydi. Keyingi yillarda O'zbekistonda ta'lim, madaniyat, ilm-fan va ma'naviy-ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar Uchinchi Renessans g'oyasining amaliy ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, yoshlarning kitobxonlikka qiziqishi ortib bormoqda; zamonaviy ta'lim muassasalari faoliyati kengaymoqda; milliy merosni o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda; ma'naviy tarbiyaga oid davlat dasturlari takomillashtirilmoqda.

Natijada jamiyatda innovatsion fikrlaydigan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan yangi avlod shakllanishi uchun mustahkam asos yaratilmoqda. Yuqoridagi fikr va mulohazalar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy taraqqiyot jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda innovatsion fikrlashni shakllantirish orqali Uchinchi Renessans po'ydevorini yaratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy[10], Abu Rayhon Beruniy[11] va Alisher Navoiy [12] asarlarida ilm, axloq va komil inson g'oyalari jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asosi sifatida yoritilgan. Bu g'oyalar bugungi Uchinchi Renessans konsepsiyasining ma'naviy-tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Shundan iboratki, Uchinchi Renessans po'ydevorini yaratishda ma'naviy taraqqiyot hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma'naviyat inson kamoloti, jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining muhim mezoni hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadrini ulug'lash, ilm-fan va ma'rifatni rivojlantirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida

tarbiyalashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Uchinchi Renessansni barpo etish uchun jamiyatda yuksak ma'naviy muhitni shakllantirish, ta'lim sifatini oshirish,

milliy merosni asrab-avaylash va yoshlarni intellektual jihatdan qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021, 8-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. - 457 бет
3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. -Т.:Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда;
4. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2022 й, 6-сон).www.lex.uz.
5. Мирзиёев Ш.М. Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда; Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.
6. Мирзиёев Ш.М. Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда; Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.
7. Mirziyoyev Sh.M. 2017 - yil 24 - maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarorlari va Farmonlari
8. Mirziyoyev Sh.M. 2017 - yil 30 - iyuldagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida” Qarorlari va Farmonlari
9. Mirziyoyev Sh.M. “Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida” 2017 - yil 14 - avgustdagi Qarorlari
10. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Meros, 1993.
11. Abu Rayhon Beruniy Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar- Toshkent, Fan nashriёti, 1968 йил.
12. Alisher Navoiy. Махбуб ул-кулуб. – Toshkent: Фафур Фулом номидаги нашриёт, 2000.